

SO‘Z VA UNING ATASH MA’NOSI MODULINI O‘QITISH

Tursunqulova Barno Abdurashid qizi

JDPU o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti

D.Urinboyeva

Ilmiy rahbar: prof.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabda “LEKSIKOLOGIYA” bo‘limini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash xususida fikr bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: funksional savodxonlik, o‘qish savodxonligi, pedagogik texnologiya, tekst, texnologiya, metod.

АННОТАЦИЯ

В данной статье предлагается использование педагогических технологий при изучении “Leksikologiya”

Ключевые слова: функциональная грамотность, читательская грамотность, педагогические технологии, текст, технологии, методы.

ABSTRACT

This article deals with “Leksikologiya” the Uzbek folklore in teaching young learners and using interactive ways of conducting sessions.

Key words: functional literacy, reading literacy, pedagogical technologies, text technology, methodical.

5-sinf darsligida so‘zning atash ma’nosiga quyidagicha ta’rif berilgan: so‘zlarning borliqdagi qanday narsa- hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat- holatlarni bildirishi uning atash ma’nosi sanaladi.

Faqat mustaqil so‘zlarga atash ma’nosiga ega bo‘ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma’nosiga ega bo‘lagan so‘zlarga ishora qiladi.

Dastlab, so‘z orqali inson ongida borliqdagi narsa-hodisalarning o‘ziga xos obrazi, tasviri gavdalanadi. Shunga ko‘ra inson ko‘zi orqali ko‘rib turgan, sezgan, tili bilan maza-ta’midan xabar topgan narsalarni belgi-xususiyatlarni, ish-harakatlarni ataydi.

Masalan: tosh, gul, quyosh, tuproq, suv, daryo - bularni ko'rib turamiz, bir-biridan farqlaymiz. Demak, narsalarni farqlash maqsadida ularga nom beramiz, ataymiz.

Qizil, nodon, mard, jasur kabi belgi-xususiyatlarni bildiruvchi so'zlar, yurmoq, gapirmoq, ketmoq singari fe'llarning ham atash ma'nolari ham aniqlanadi.

Olmoshlar bunday ma'noga ega bo'lmasligi sababi ular narsa-hodisalarni, belgi-xususiyatlarni, ish-harakatlarni bevosita atay olmasligi ularga ishora qilishiga ayatiladi.

Bu darsda rasmlar nimalar tasvirlangani o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar narsalar nomlarini aytadilar. Ana shu asosda so'zlarning atash ma'nosi nima ekanligi haqida o'quvchilar xulosa chiqarishiga o'qituvchi yordam beradi.

So'z orqali inson ongida borliqdagi narsa va hodisalarning o'ziga xos obrazi, tasviri gavdalanadi. Shunga ko'ra inson ko'zi orqali ko'rib turgan, sezgan, tili bilan maza-ta'midan xabar topgan narsalarni, belgi-xususiyatlarni, ish-harakatlarni ataydi.

Solishtirish uchun quyidagi misollarni keltiramiz.

Maysa, yulduz, ko'krang, chiqmoq harakati o'rnida shu so'zni qo'llash mumkin.

Mashqlar yuqoridagi fikrlar asosida bajariladi.

479-mashq. Nuqtalar o'rniga atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarni keltirish so'ralgan.

1. manzarani ko'rib ko'z quv naydi. - Ajoyib manzarani ko'rib ko'z quv naydi.

2. Sumalak xushxo'r va tansiq - Sumalak xushxo'r va tansiq taom.

3. Qadim zamonda Chin mamlakatida bir ulug' xoqon ekan. -- Qadim zamonda Chin mamlakatida bir ulug' xoqon bo'lgan ekan.

Ushbu mashq orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadilar. Shu bilan birga o'tilganlarni takrorlaydilar.

480-mashqda esa rasmga asoslanib "Stadionda" mavzusida og'zaki hokiya tuzish aytilgan. Shu bilan birga tuzilgan hikoyadagi so'zlarning atash ma'nolarini aytishlari kerak. Ushbu mashqni o'quvchilarga bajartirishda "Guruhlarda ishlaymiz" metodidan foydalansa bo'ladi. Bunda o'qituvchi rasm chizilgan plakatdan foydalanadi.

Shundan so'ng 481-mashqda o'quvchilardan berilgan so'zlarning atash ma'nolarini izohlash talab qilinadi. Ushbu mashqni bajarishda "Svetafor" o'yinidan foydalansa bo'ladi. O'yinning jihozi qizil, sariq, yashil rangli doirachalar.

Bunda sinf o'quvchilari ikki yoki uchta kichik guruhga bo'linadi. Barcha guruh a'zolariga rangli doirachalar tarqatiladi. So'ng o'qituvchi sinf taxtasiga so'zlar yozilgan ko'rgazmani ilib qo'yadi. Guruh a'zolaridan biri so'zning atash ma'nosini izohlaydi. Izohni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil doirachani, noto'g'ri deb hisoblaganlar sariq doirachani, javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini bilolmagan o'quvchilar qizil rangli doirachani ko'taradi. Har uchala guruhga o'yin boshida savollar miqdoridan kelib chiqib ball beriladi. Har bir qizil doiracha uchun bir ball

ozaytirib boriladi. Masalan, birinchi guruhda o‘ttiz ball, ikkinchi guruhda o‘ttiz ball, uchinchi guruhda ham o‘ttiz ball mavjud. Agar birinchi guruhdan beshta o‘quvchi qizil doiracha ko‘tarsa, yogirma besh ball qoladi.

Sariq doiracha ko‘targanlar javobning nima uchun noto‘g‘ri ekanligini izohlab beradilar. To‘g‘ri izohlay olmasa 0,5 ball kamayadi.

Chopmoq	Bino	Litsey
Qizil	Ikkinchi	Kutmoq
Baland	Uchta	Qalam
Javob bermoq	Chiroyli	Sakramoq
Sakkiz	Ikki	Quvnoq
Aytmoq	O‘n ikki	O‘rtacha

Oxirida guruhlar to‘plagan ballar hisoblanib, g‘olib chiqqan guruh hamda eng faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa sifatida 482-mashq topshiriladi. Bunda o‘quvchilar har birida narsa-hodisa, belgi-xususiyat hamda harakat-holatlarni ifodalovchi so‘zlar ishtirok etgan beshta gap tuzishlari kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005.
2. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi,-Toshkent, 1995.
3. Sayfullayrva R, Mengliyev B, Raupova L, Qurbonova M, Abdusalova M, Yo‘ldosheva . Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2020.
4. Sh. Rahmatullayev. Semema mustaqil til birligi// UTA, 1984, 3-son.